


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modelashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Tuopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Toksonov Xurshid Egamberdievich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKTALARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpotov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Qurbonov Jasurbek Pozilovich

Alfraganus University

"Iqtisodiyot" fakulteti dekani

ORCID: 0000-0003-2651-3392

E-mail: j.qurbonov@afu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kapital tuzilmasi nazariyalari, ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari, yashil obligatsiyalar, aralash moliyalashtirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining amaliy imkoniyatlari qiyosiy baholandi. Olingan natijalar moliyalashtirish manbalarini muvozanatli shakllantirish investitsion risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilganini ko'rsatdi. Shuningdek, investitsion loyihalarni barqaror moliyalashtirishning konseptual modeli ilmiy asoslandi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, investitsion loyihalar, moliyalashtirish manbalari, diversifikatsiya, xorijiy investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация. В статье проведен научный анализ приоритетных направлений диверсификации источников финансирования инвестиционных проектов в текстильной промышленности. В ходе исследования сравнительно оценены теории структуры капитала, внутренние и внешние источники финансирования, иностранные инвестиции, механизмы финансирования международных финансовых институтов, зеленые облигации, смешанное финансирование, а также механизмы государственно-частного партнерства. Полученные результаты показали, что сбалансированное формирование источников финансирования способствует снижению инвестиционных рисков, укреплению финансовой устойчивости, эффективному использованию ресурсов и повышению экспортного потенциала отрасли. Кроме того, научно обоснована концептуальная модель устойчивого финансирования инвестиционных проектов.

Ключевые слова: текстильная промышленность, инвестиционные проекты, источники финансирования, диверсификация, иностранные инвестиции, зеленые облигации, государственно-частное партнерство, финансовая устойчивость.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the priority directions for diversifying financing sources of investment projects in the textile industry. The study comparatively evaluates capital structure theories, internal and external financing sources, foreign investment, financing mechanisms of international financial institutions, green bonds, blended finance, and public-private partnership mechanisms. The findings demonstrate that a balanced financing structure contributes to reducing investment risks, strengthening financial sustainability, improving resource efficiency, and enhancing the export potential of the textile industry. In addition, a conceptual model for the sustainable financing of investment projects is scientifically substantiated.

Keywords: textile industry, investment projects, financing sources, diversification, foreign investment, green bonds, public-private partnership, financial sustainability.

KIRISH

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biriga aylandi va investitsion faollikning amaliy ko'lamini buni yaqqol ko'rsatadi. **2025-yil** yakunlariga ko'ra tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so'mga yetdi, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar 2,1 milliard AQSh dollarini, eksport esa 2,5 milliard dollarni tashkil etdi; bandlik ko'rsatkichi 623 ming kishiga ko'tarildi [1]. Bunday natijalar sohaning kapital sig'imi yuqori ekanini va doimiy ravishda yangi moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezishini

tasdiqlaydi.

2026-yil uchun belgilangan vazifalar moliyaviy yukning yanada ortishini ko'rsatadi: ishlab chiqarishni 147 trillion so'mga, eksportni 3,3 milliard dollarga yetkazish, tarmoqqa 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish hamda sintetik va aralash ip, gazlama, tikuv-trikotaj mahsulotlari bo'yicha yangi quvvatlarni ishga tushirish ko'zda tutilgan [2]. O'rta muddatli istiqbolda eksportni **2028-yilga** qadar 7 milliard dollarga oshirish va sohaga 5 milliard dollargacha investitsiya hamda kredit jalb etish maqsadi qo'yilgan [3]. Bu vazifalar ko'lami an'anaviy moliyalashtirish kanallarining imkoniyatlaridan ustun turadi.

Amaliyotda korxonalar moliyaviy resurslarning yuqori narxi va asosan bank kreditiga bog'liqlik bilan to'qnash keladi, holbuki mamlakat investitsiya dasturining qariyb 87 foizi xususiy va korporativ manbalar hisobiga shakllanadi [4]. Moliyaviy yukni bitta yoki ikkita manbaga jamlash investitsion loyihalarni narx, valyuta va muddat bo'yicha xavfga ochiq qoldiradi. Maqolaning amaliy maqsadi to'qimachilik investitsion loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini asoslash va tarmoq korxonalari uchun qo'llanma bo'ladigan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyalashtirish manbalarini tanlash masalasi korporativ moliya nazariyasida kapital tuzilmasi muammosi sifatida shakllangan. Mayers va Maylufning **1984-yilda** taklif etgan moliyaviy iyerarxiya (*pecking order*) nazariyasiga ko'ra, korxonalar avvalo ichki manbalarni, so'ngra qarz mablag'larini va eng oxirida ulushli kapitalni jalb etishni afzal ko'radi; bu tartib axborot assimetriyasi va tashqi moliyalashtirishning nisbatan yuqori narxi bilan izohlanadi [5]. Iyerarxiyaning amaliy mantig'i investitsion loyiha uchun manbalar ketma-ketligini tartibga soluvchi mezon vazifasini bajaradi.

Kompromiss (*trade-off*) nazariyasi masalaga boshqa burchakdan yondashadi va qarz hamda ulush o'rtasidagi muvozanatni soliq qalqoni bilan moliyaviy notinchlik xarajatlari o'rtasidagi tanlov sifatida talqin qiladi. Yirik va diversifikatsiyalashgan korxonalarda bankrotlik xarajatlari pasayadi, shu boisdan ular nisbatan yuqori qarz salohiyatiga ega bo'ladi [6]. Mazkur qarash manbalarni diversifikatsiyalash korxona moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini nazariy jihatdan asoslaydi.

Empirik tadqiqotlar nazariy farazlarni ishlab chiqarish korxonalari misolida sinab ko'rgan. Borsa Istanbul ro'yxatidagi ishlab chiqarish kompaniyalari bo'yicha **2000–2018-yillarni** qamragan tahlil moliyaviy iyerarxiya kichik korxonalar uchun amal qilishini, investitsiya darajasi oshgani sari ichki mablag' va qarzga sezgirlik kuchayishini ko'rsatdi [7]. Bunday natijalar kapital sig'imi yuqori tarmoqlarda manba tanlovi loyiha bosqichiga bog'liq ravishda o'zgarishini tasdiqlaydi.

So'nggi o'n yillikda barqaror moliyalashtirish vositalari mustaqil yo'nalishga aylandi. Yashil obligatsiyalar maqsadli xususiyati hisobiga investorlar doirasini kengaytiradi, portfel diversifikatsiyasi va risklarni yumshatish imkonini beradi hamda yashil infratuzilmaga kapital safarbar qiladi; ayni paytda rivojlanayotgan bozorlarda yuqori tranzaksiya xarajatlari va institutsional bazaning yetishmasligi kabi cheklovlar saqlanib qoladi [8]. Xalqaro moliya korporatsiyasi **2010-yildan** yashil obligatsiya dasturini yuritadi va **2025-moliya yilida** 25,7 milliard dollar iqlim moliyasini taqdim etdi, bu xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirishda yangi aktiv sinfining yetukligini ko'rsatadi [9].

Aralash moliyalashtirish (*blended finance*) imtiyozli davlat resurslari bilan xususiy kapitalni birlashtirib, alohida loyihalarni yiriklashtirish va kredit sifatini oshirish vositasi sifatida rivojlandi. Bunday tuzilmalar mamlakat va qarz oluvchi bo'yicha diversifikatsiyani ta'minlaydi, fond hajmini 200 million dollardan 20 milliard dollargacha kengaytirish va cheklangan imtiyozli mablag'dan samarali foydalanish imkonini beradi [10]. Mavjud adabiyotlar manbalarning har birini alohida yoritgan bo'lsa-da, o'tish iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik tarmog'i uchun yaxlit moliyalashtirish portfelini shakllantirish masalasi yetarlicha umumlashtirilmagan, bu esa hozirgi tahlilning ilmiy o'rnini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ish sifat tahlili va qiyosiy-institutsional yondashuvga asoslandi. Nazariy asos kapital tuzilmasi hamda moliyaviy iyerarxiya nazariyalaridan, empirik baza esa rasmiy va ochiq tasdiqlangan manbalardan, jumladan, davlat organlari hisobotlari, xalqaro moliya institutlarining materiallari va taqriz qilingan ilmiy nashrlardan tashkil topdi. Ma'lumotlar ishonchligini ta'minlash uchun har bir miqdoriy ko'rsatkich birlamchi manba bilan solishtirildi va faqat havolasi mavjud rasmiy raqamlar tahlilga kiritildi.

Tahlil bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Birinchi bosqichda to'qimachilik tarmog'ining amaldagi moliyalashtirish tuzilmasi aniqlandi; ikkinchi bosqichda alohida manbalarning mexanizmi va mamlakat kontekstidagi dalillari qiyoslandi; uchinchi bosqichda manbalarni maqsadli muvozanatlashtiruvchi konseptual



model shakllantirildi. Yondashuvning cheklovi makro daraja ikkilamchi ma'lumotlariga tayanishi bilan bog'liq bo'lib, kelgusi izlanishlarda korxona darajasidagi birlamchi ma'lumotlar bilan to'ldirilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'qimachilik tarmog'ining amaldagi moliyalashtirish tuzilmasida bank krediti yetakchi o'rin tutadi. **2026-yilda** korxonalarning aylanma mablag'ini to'ldirish uchun 200 million dollar imtiyozli kredit ajratilishi va 138 ta kompaniyada moliyaviy qayta tuzilish o'tkazilishi rejalashtirildi [1]. Bunday choralar qisqa muddatli likvidlikni qo'llab-quvvatlaydi, biroq uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni faqat kredit hisobiga ta'minlash narx va muddat bosimini kuchaytiradi, bu esa diversifikatsiya zaruriyatini amaliy jihatdan ko'rsatadi.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategik kapital va texnologiya kiritishning samarali kanali bo'lib qolmoqda. **2026-yil** uchun 2,2 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish maqsadi belgilangan [2]. Sohaning xalqaro brendlar bilan integratsiyasi bu kanalning amaliy salohiyatini tasdiqlaydi: **2024-yilda** tegishli korxonalar 12,9 trillion so'mlik 273 ming tonna mahsulot ishlab chiqarib, undan 40,1 ming tonnasini 435,4 million dollarga eksport qildi; eksport ulushi ishlab chiqarishning 42 foiziga yetdi va korxonalarda 37,5 mingdan ortiq ish o'rnini yaratildi [11]. Yirik xaridor kompaniyalar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar xorijiy kapital uchun barqaror talab maydonini shakllantiradi.

Ichki kapitalni mustahkamlash iyerarxiyaning yuqori bo'g'inini ta'minlaydi va davlat rag'batlantirish siyosati bu bo'g'inni kuchaytiradi. Tarmoqda soliq imtiyozlari, eksportyorlar uchun transport xarajatining 50 foizini qoplash hamda nisbatan arzon mehnat va energiya resurslari amal qiladi; **2017-yildan** joriy etilgan paxta-to'qimachilik klasterlari xom ashyo bazasini barqarorlashtirib, taqsimlanmagan foyda hisobiga reinvestitsiya imkonini kengaytirdi [12]. Klaster modeli ichki jamg'armalarni mustahkamlash orqali tashqi qarzga bog'liqlikni kamaytiradi.

Xalqaro moliya institutlari diversifikatsiyaning muhim ustunini tashkil etadi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki O'zbekistonda 193 loyiha doirasida 6,5 milliard dollardan ortiq mablag' joylashtirdi, yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish dasturi (GEFF II) orqali resurs samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan kreditlar va sherik banklar kredit riskining 50 foizigacha qismini o'z zimmasiga oluvchi risk taqsimoti vositalarini taklif etdi [13]. Bunday liniyalari valyuta va muddat bo'yicha kredit portfelini muvozanatlashtirib, xususiy korxonalar uchun resurs narxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Bozor asosidagi maqsadli vositalar tarmoq uchun istiqbolli kengayish maydonini ochadi. Yashil obligatsiyalar barqaror loyihalarni moliyalashtirishda investorlar bazasini diversifikatsiyalash imkonini beradi [9], aralash moliyalashtirish esa imtiyozli va xususiy kapitalni birlashtirib, alohida loyihalarni yiriklashtiradi va kredit sifatini oshiradi [10]. To'qimachilik korxonalarning suv tozalash, energiya samaradorligi va resurs tejovchi modernizatsiya loyihalari bu vositalarning maqsadli mezonlariga mos keladi, bu esa ularni amaliyotga joriy etish uchun real asos yaratadi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmi umumiy infratuzilma uchun uzoq muddatli bo'lingan moliyalashtirishni ta'minlaydi. Bu vosita loyihani noto'g'ri tanlash, optimizm og'ishi va byudjetdan tashqari majburiyatlar kabi risklarni hisobga olishni talab etadi, shu sababli uni davlat investitsiya rejasiga integratsiyalash va yangi loyihalarga yillik chegara belgilash tavsiya etiladi [14]. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik portfeli **2021-yil** oxiridagi 6,2 milliard dollardan **2024-yil** oxirida 31 milliard dollarga, ya'ni yalpi ichki mahsulotning 27 foiziga yetdi, shu bois byudjet barqarorligini saqlash maqsadida yangi majburiyatlarga chegara joriy qilindi [15]. To'qimachilik tarmog'i uchun bu mexanizm korxonalar birgalikda foydalanadigan energiya va kommunal infratuzilma loyihalarida ayni o'rinli bo'ladi (1-jadval).

1-jadval


To'qimachilik investitsion loyihalarini moliyalashtirish manbalari va ularning tavsifi¹

Moliyalashtirish manbai	Mexanizmi	O'zbekiston kontekstidagi dalil	Manba
Imtiyozli bank kreditlari	Aylanma mablag'ni to'ldirish va modernizatsiya	2026-yilda tarmoq korxonalarga 200 mln AQSh dollari imtiyozli kredit ajratilishi	[1]
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Strategik kapital va texnologiya kiritish	2026-yil uchun 2,2 mlrd AQSh dollari xorijiy investitsiya maqsadi	[2]

1 Manba: rasmiy va ochiq ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Eksport imtiyozlari va klaster modeli	Ichki kapitalni va xom ashyo bazasini mustahkamlash	Soliq imtiyozlari, transport xarajatining 50% qoplanishi, klaster kontraktatsiyasi	[12]
Xalqaro moliya institutlari kreditlari	Risklarni bo'lishish va imtiyozli hammoliyalashtirish	EBRD O'zbekistonda 6,5 mlrd dollardan ortiq, 193 loyiha; GEFF II yashil liniyasi	[13]
Yashil obligatsiyalar	Bozor asosidagi maqsadli barqaror qarz	IFC 2010-yildan yashil obligatsiya dasturi; 2025-moliya yilida 25,7 mlrd AQSH dollar iqlim moliyasi	[9]
Aralash moliyalashtirish	Imtiyozli va xususiy kapitalni birlashtirib moliyaviy yelka yaratish	Fond hajmi 200 mln AQSH dollardan 20 mlrd AQSH dollargacha; portfel diversifikatsiyasi	[10]
Davlat-xususiy sheriklik (PPP)	Infratuzilma uchun uzoq muddatli bo'lingan moliyalashtirish	2024 yil oxirida 31 mlrd AQSH dollarlik portfel, YalMning 27%	[15]

Qiyosiy tahlil natijalari manbalarining bir-birini to'ldiruvchi tabiatini ko'rsatadi: ichki jamg'armalar va imtiyozli kreditlar joriy ehtiyojni qoplaydi, xorijiy investitsiyalar va xalqaro institutlar resurslari strategik kapitalni yetkazadi, yashil obligatsiyalar bilan aralash moliyalashtirish maqsadli barqaror loyihalarni quvvatlaydi, davlat-xususiy sheriklik esa umumiy infratuzilmani moliyalashtiradi. Ushbu manbalarining maqsadli muvozanati 1-rasmda taqdim etilgan konseptual modelda umumlashtirildi (1-rasm).



Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning konseptual modeli

1-rasm. To'qimachilik investitsion loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalashning konseptual modeli²

Model markazda investitsion loyihalarni, atrofida esa olti yo'nalishli manba tizimini joylashtiradi va har bir manbaning o'ziga xos vazifasini ko'rsatadi. Bunday tuzilma moliyaviy iyerarxiya mantig'ini amaliy darajaga olib chiqadi: korxona avval ichki resurslarga tayanadi, so'ngra qarz va institutsional mablag'larni jalb etadi, eng yuqori bosqichda esa bozor asosidagi maqsadli vositalardan foydalanadi. Natijada moliyaviy portfel narx, valyuta, muddat va risk bo'yicha muvozanatlashadi hamda tarmoq raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil to'qimachilik sanoatida investitsion loyihalarni faqat bitta manbaga tayanib moliyalashtirish narx va risk bosimini kuchaytirishini, diversifikatsiyalashtirilgan portfel esa moliyaviy barqarorlikni va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatdi. Nazariy iyerarxiya mantig'i rasmiy ko'rsatkichlar bilan birlashtirilganda, har bir manba muayyan loyiha bosqichi va maqsadiga mos keladigan o'rinni egallashi aniqlandi. Quyidagi ustuvor yo'nalishlar amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar sifatida shakllantirildi.

Ichki jamg'armalar va imtiyozli kredit muvozanatini ta'minlash: taqsimlanmagan foyda va amortizatsiya hisobidan reinvestitsiyani rag'batlantirib, imtiyozli kreditni asosan aylanma mablag' va modernizatsiyaga yo'naltirish.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyani chuqurlashtirish: klaster modeli va xalqaro brendlar bilan to'g'ridan



to'g'ri shartnomalar orqali strategik kapital va texnologiya oqimini kengaytirish.

Xalqaro moliya institutlari liniyalarini faollashtirish: yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish va risk taqsimoti dasturlaridan korxona kredit portfelini muvozanatlashtirish maqsadida foydalanish.

Yashil va barqaror obligatsiyalarni sinov tartibida joriy etish: resurs tejovchi va eksportga yo'naltirilgan loyihalar uchun maqsadli qarz vositalarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish.

Aralash moliyalashtirishni narxi yuqori loyihalarga qo'llash: imtiyozli va xususiy kapitalni birlashtirib, yirik modernizatsiya loyihalarining kredit sifatini oshirish.

Davlat-xususiy sheriklikdan tanlab foydalanish: korxonalar birgalikda foydalanadigan energiya, suv tozalash va kommunal infratuzilma loyihalarida mexanizmni risklarni hisobga olgan holda qo'llash.

Mazkur yo'nalishlarni izchil joriy etish to'qimachilik korxonalariga moliyaviy resurslarni narx, muddat va risk bo'yicha optimallashtirish, investitsion loyihalarni barqaror moliyalashtirish hamda tarmoqning eksport salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini beradi. Diversifikatsiyalashtirilgan moliyaviy model tarmoqning uzoq muddatli o'sishi uchun ishonchli asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Outlines Growth Targets for Uzbekistan's Textile Industry in 2026. **UzDaily**, 24.12.2025. <https://www.uzdaily.uz/en/mirziyoyev-outlines-growth-targets-for-uzbekistans-textile-industry-in-2026/>
2. Uzbekistan Sets UZS 147 Trillion Output Target for Textile Industry. **Kun.uz**, 24.12.2025. <https://kun.uz/en/news/2025/12/24/uzbekistan-sets-uzs-147-trillion-output-target-for-textile-industry>
3. Cotton and Products Update – Uzbekistan. **USDA Foreign Agricultural Service (GAIN Report)**, 2024. <https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update+Tashkent+Uzbekistan+-+Republic+of+UZ2024-0003.pdf>
4. 2024 Investment Climate Statements: Uzbekistan. **U.S. Department of State**, 2024. <https://2021-2025.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uzbekistan/>
5. Pecking Order Theory: Concept and Finance Example. **Wall Street Prep**, 2024. <https://www.wallstreetprep.com/knowledge/pecking-order-theory/>
6. Capital Structure Theory – An Overview. **ScienceDirect Topics (Elsevier)**. <https://www.sciencedirect.com/topics/economics-econometrics-and-finance/capital-structure-theory>
7. Testing the Pecking Order Theory of Capital Structure: Evidence from Turkey. **Borsa Istanbul Review**, ScienceDirect, 2020. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2214845020300740>
8. Innovations and Barriers in Sustainable and Green Finance for Advancing Sustainable Development Goals. **Frontiers in Environmental Science**, 2024. <https://www.frontiersin.org/journals/environmental-science/articles/10.3389/fenvs.2024.1513204/full>
9. Green Bonds. **International Finance Corporation (IFC), World Bank Group**. <https://www.ifc.org/en/about/funding-and-investor-relations/green-bonds>
10. Blended Finance for Climate Bonds. **Convergence News**, 21.11.2024. <https://www.convergence.finance/news/3ZYNCe3mldzdXqTBk4slWs/view>
11. Textile Revolution in Uzbekistan. **Ministry of Investments, Industry and Trade of Uzbekistan**, 25.08.2025. <https://gov.uz/en/miit/news/view/80910>
12. Investment Potential. **Uzbekistan Textile and Garment Industry Association**. <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential/>
13. EBRD and Ipak Yuli Bank to Support Green Lending and Uzbek MSMEs. **European Bank for Reconstruction and Development (EBRD)**, 2025. <https://www.ebrd.com/home/news-and-events/news/2025/ebrd-and-ipak-yuli-bank-to-support-green-lending-and-uzbek-msmes.html>
14. Dwight L. Uzbekistan and Public-Private Partnerships: Country Lessons. **IMF Selected Issues Papers**, No. 2025/087, June 2025. <https://www.imf.org/en/publications/selected-issues-papers/issues/2025/06/27/uzbekistan-and-public-private-partnerships-country-lessons-republic-of-uzbekistan-568107>
15. IMF: Uzbekistan's Public-Private Partnerships Could Burden Future Budgets. **Kun.uz**, 02.07.2025. <https://kun.uz/en/news/2025/07/02/imf-uzbekistans-public-private-partnerships-could-burden-future-budgets>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100